

SIYOSIY JARAYONLARNING SUBYEKTI VA UNING MOHIYATI

Abdulganiyev Adhamjon Abdusamad o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy jarayonlar subyektining o'rni va uning siyosiy hayotdagi ishtiroki muhim o'rganish ob'ektlaridan biridir. Ushbu maqolada biz siyosiy jarayonlarning subektlarini, ularning xilma-xilligini va siyosiy sohada qanday rol o'ynashini tahlil qilamiz.*

Kalit so'zlar: *Individuallar, Siyosiy partiyalar, Hokimiyat organlari, Xalqaro tashkilotlar, Media*

Siyosiy jarayonlar - bu siyosiy tizimning ichida yoki uning atrofida kechadigan, siyosiy qaror qabul qilish va hokimiyat tizimlarini shakllantirishga oid muhim dinamikalar to'plamidir. Bu jarayonlar turli darajalarda – mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda yuz berishi mumkin.

Siyosiy jarayonlarning subyektini - bu har qanday tashkiliy yoki shaxsiy element bo'lib, u siyosiy qarorlar yoki siyosiy tizim strukturalarini ishlab chiqarish va amalga oshirishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi mumkin.⁵

Har bir siyosiy jarayon subyektining o'ziga xos xususiyatlari, maqsadlari va vositalari bor, Siyosiy jarayonlarning subyektlari bir-biri bilan turli xil o'zaro ta'sir qilishlari mumkin. Bu o'zaro ta'sir strategiyalari, kelishuvlar, hamkorliklar, raqobatlar va siyosiy kurashlar shaklida namoyon bo'ladi. Siyosiy jarayonlar subyektlarining moslashuvchanligi va ta'sirchanligi ularning siyosiy o'yinlardagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi.

Siyosiy jarayonlarning subyektlari siyosiy tizimning asosiy qismlaridir va ular siyosiy hayotning har tomonlama rivojlanishi, barqarorligi va o'zgaruvchanligida muhim rol o'ynaydi. Har bir subyektning siyosiy jarayonda faol va maqsadga muvofiq harakat qilishi, siyosatning ko'p qirrali va dinamik xarakterini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Individuallar. Siyosiy jarayonlarda shaxslar turli xil faoliyat olib borishadi. Ular o'zlarining siyosiy fikrlarini ifodalash, ovoz berish va siyosiy guruhlariga qo'shilish orqali siyosiy jarayonning sub'ekti bo'lishi mumkin. Shaxslar o'z fikrlarini ifodalash orqali siyosiy muhitga ta'sir qilishadi. Shuningdek, fuqarolar kasaba uyushmalari faoliyatida, siyosiy partiyalar a'zolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadilar. Ular yoshlar, xotin-qizlar, turli jamg'armalar, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida

⁵ <https://milliycha.uz/siyosiy-jarayon-subyektlari/>

ishtirok etadilar. Ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishda saylovlar muhim o'rin tutadi. Bu faoliyatlari orqali shaxslar siyosiy jarayonlarga va ularning natijalariga ta'sir qilishadi.

Siyosiy partiyalar. Siyosiy partiyalar siyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Ular ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muxim qismi, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi. Qonunga ko'ra siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, o'z xohish-irodalarini erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkorlik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lganidan so'ng siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratildi. Mamlakatda hozirgi paytda 5 ta siyosiy partiya (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston Adolat sotsial demokratik partiyasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi) mavjud. Bu siyosiy partiyalar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining „Siyosiy partiyalar to'g'risida“gi qonuni, boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, o'z ustavi asosida amalga oshiradi.⁶

Hokimiyat organlari. Hokimiyat organlari siyosiy jarayonning muhim sub'ektlaridir. Ular qonun hujjatlarini qabul qilish, mamlakatni boshqarish orqali siyosiy jarayonlarga ta'sir qilishadi. O'zbekistonda, mahalliy davlat hokimiyati organlari joylardagi davlat boshqaruv idoralari hisoblanadi. Ular mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni o'z vakolatlari doirasida o'zlari hal etadilar, umumdavlat manfaatlarini shu hududda yashab turgan fuqarolarning manfaatlarini bilan uyg'unlashtiradilar, yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo'g'ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish, mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlar belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish, mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash, normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.⁷

Xalqaro tashkilotlar: Xalqaro tashkilotlar ham siyosiy jarayonning subyektlaridir. Ular xalqaro siyosiy muhitni ta'sir qilish, xalqaro qonun hujjatlarini ishlab chiqish va xalqaro munosabatlarni tartibga solish orqali siyosiy jarayonlarni

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_partiyalar

⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahalliy_davlat_hokimiyati_organlari

ta'sir qilishadi. Xalqaro tashkilotlar tinchlik va xavfsizlikni saqlashda turli xil nazariyalar mavjud. Masalan, konstruktivistlar xalqaro tashkilotlarning davlatlarni xalqaro hamkorlik qilishga chorlaydi. Xalqaro tashkilotlar faoliyatini samarali qilish uchun, ularning rahbariyati a'zolar davlatlarining ishonchini mustahkamlash va ulardan belgilangan vazifalar va maqsadlarni bajarish uchun yetarli resurslarni olishga qodir bo'lishi kerak. Xalqaro tashkilotlar, xalqaro hayotni o'z ichiga olgan holda, xalqaro siyosatning deyarli har bir muhim sohasida ishlaydi: savdo, xavfsizlik, moliya, atrof-muhit, rivojlanish, inson huquqlari, ilm-fan va madaniyat. Xalqaro tashkilotlar xalqaro jamiyatni bugungi kunda uchratayotgan ko'plab muammolarni, masalan, kasalliklar, iqlim o'zgarishi, urushlar, terrorizm, ochlik va nochorlik, atrof-muhitni buzilishi va hokazolarni hal qilish uchun xalqaro tashkilotlar orqali birgalikda harakat qilishga intiladi. Ular haqiqatan ham xalqaro tashkilotlar orqali millatlar davlatlari hamda o'zlarining umumiy muammolari uchun yechim topishni istagan shaxslar uchun haqiqiy platformalarni taqdim etadi.

Media: Media siyosiy jarayonlarni ta'sir qilishning muhim vositasidir. Ular siyosiy ma'lumotlarni tarqatish, jamoaviy fikrni shakllantirish va siyosiy masalalarni ko'rsatish orqali siyosiy jarayonlarga ta'sir qilishadi. Ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

Hukumat rahbarlarini xalqqa javobgar qilish: Media hukumat rahbarlarini xalqqa javobgar qiladi, ularning harakatlarini tekshiradi va ularni xalq fikriga javob berishga majbur qiladi.

Muammolarni e'lon qilish: Media muhim muammolarni e'lon qiladi va ularni hal qilish uchun diqqatni qaratadi.

Fuqarolar siyosiy va huquqiy ongini oshiradi: Media fuqarolarni siyosiy jarayonlar haqida to'liq va aniq ma'lumot bilan ta'minlaydi.

Jamiyatdagi kommunikativlikni oshiradi: Media odamlarni birlashtirib, ularning birgalikda muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Siyosiy jarayonlarning subyektlari mazkur maqolada keng ko'rinishda tahlil qilindi. Siyosiy jarayonlar, mamlakatning hokimiyati, siyosiy tizimi, va jamiyatdagi o'zgarishlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim mavzulardir. Siyosiy jarayon subyektlari davlat boshqaruvi sohasini, ijtimoiy-iqtisodiy sohani, xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rinlarni rivojlantirish borasida yetakchilik uchun kurashishadi. Subyektlar faoliyati qanchalik jadallashsa, siyosiy jarayon ko'rsatkichlari ham shu qadar yuqori bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahalliy_davlat_hokimiyati_organlari
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Siyosiy_partiyalar
3. <https://milliycha.uz/siyosiy-jarayon-subyektlari/>
4. <https://journalism.uoregon.edu/news/six-ways-media-influences-elections>